

10.11.
SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

RAVSHANOV MIRJALOL AKMAL O'G'LI

**QO'YLARDA SENUROZNING ZAMONAVIY DIAGNOSTIKASI VA
XIRURGIK USULDA DAVOLASH**

16.00.01 – Hayvonlar kasalliklari diagnostikasi, terapiyasi va xirurgiyasi

**VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

UO'K: 916:636.31:616.99:616.002:617

**Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
ветеринарным наукам**

**Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD) on veterinary
sciences**

Ravshanov Mirjalol Akmal o'g'li

Qo'ylarda senurozning zamonaviy diagnostikasi va xirurgik usulda davolash..... 3

Равшанов Миржалол Акмал угли

Современная диагностика и хирургическое лечение ценуроза у овец.... 21

Ravshanov Mirjalol Akmal ugli

Modern diagnosis and surgical treatment of coenurosis in sheep..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 44

f. kash
SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI



RAVSHANOV MIRJALOL AKMAL O'G'LI

**QO'YLARDA SENUROZNING ZAMONAVIY DIAGNOSTIKASI VA
XIRURGIK USULDA DAVOLASH**

16.00.01 – Hayvonlar kasalliklari diagnostikasi, terapiyasi va xirurgiyasi

**VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

k
Samarqand – 2024



Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/V85 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.ssuu.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Narziyev Baxtiyor Daliyevich
veterinariya fanlari nomzodi, dotsent.

Rasmiy opponentlar:

Bakirov Baxtiyar
veterinariya fanlari doktori, professor

G'afforov Usmon Bobonazarovich
tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish
qo'mitasi**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/30.12.2019.V.12.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil « 4 » may soat « 11⁰⁰ » dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel.: (99866) 234-76-86; e-mail: ssuv@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (19321 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel.: (99866) 234-76-86; Fax:+998662347686).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « 19 » 04 kuni tarqatildi.
(2024 yil « 19 » 04 dagi № 7 - raqamli reestr bayonnomasi)



X.B.Yunusov


Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, biol.f.d., professor

S.B.Eshburiev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, vet.f.d., dotsent

Q.N.Norboev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar
raisi, vet.f.d., professor



KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo aholisini sifatli go'sht, sut va jun mahsulotlari bilan ta'minlashda chorvachilikning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan qo'ychilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. «Dunyo miqiyosida qo'ylarning umumiy bosh soni 1 mlrd 363 mln 396 mingni tashkil etib»¹, «insonlar tomonidan iste'mol qilinadigan yillik 354,8 mln tonna go'sht mahsulotining 16,36 mln (4,6%) tonnasi qo'y go'shti hisobiga to'g'ri keladi»². Qo'ychilikni intensiv rivojlantirishda bir qator yuqumli, yuqumsiz va invazion kasalliklar, jumladan qo'ylar senurozi katta to'siqlardan bo'lmoqda. Senurozning qo'ylar orasida keng tarqalishi, ularda mahsuldorlikning keskin pasayishi yoki nobud bo'lishi hisobiga katta iqtisodiy zarar keltiradi. Shu sababli qo'ylarda senurozni ertachi diagnostika qilish, samarali davolash va oldini olish usullarini ishlab chiqish veterinariya mutaxassislari oldidagi dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Dunyoning bir qator mamlakatlarida qo'ylar orasida senuroz keng tarqalgan bo'lib, kasallik qo'zg'atuvchisining rivojlanishi uchun qulay sharoitning mavjudligi, kasallikka aniq tashxis qo'yishning qiyinligi, hamda davolashning samarali usullari ishlab chiqilmaganligi sababli bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu patologiyaning ertachi va aniq tashxis qo'yish va davolashning ilmiy asoslangan jarrohlik usullarini takomillashtirish orqali sohani rivojlantirish, mahsulot tannarxini pasaytirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va aholini sifatli, ekologik toza go'sht mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish imkoniyati yaratiladi.

Respublikamizning qo'ychilik xo'jaliklarida xorijdan keltirilgan yangi mahsuldor qo'y zotlarini mamlakatimiz iqlim sharoitiga moslashtirish hamda yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish asosida sohani intensiv rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida zotli mahsuldor qo'ylar bosh soni ko'payib, ulardan olinadigan mahsulotlar sifati va samaradorligi ortishiga erishilmoqda. Shu bilan birgalikda qo'ylarning parazitlar kasalliklarini, jumladan sestodozlarni ertachi ilmiy asoslangan tashxis usullarini ishlab chiqish, samarali davolash va biologik zanjirni uzishga asoslangan oldini olish tadbirlarini takomillashtirish bo'yicha veterinariya amaliyotida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Qo'ychilik fermer xo'jaliklari va aholiga qarashli mahalliy va zotli qo'ylar orasida senuroz o'tkir va surunkali kechishi bilan xarakterlanib, yosh qo'zilar o'sish va rivojlanishdan qolishi yoki majburiy so'yilishi va davolash xarajatlarining ortishi hisobiga katta iqtisodiy zararga sabab bo'lmoqda. Shu boisdan, ushbu muammoni bartaraf etishda davolashning jarrohlik usulini takomillashtirish va amaliyotga keng joriy etish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

¹ World population review. <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/sheep-population-by-country>

² Meat and dairy production. <https://ourworldindata.org/meat-production>

Ushbu dissertatsiya doirasida bajarilgan tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi³, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 martdagi PF-5696-son «Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari, 2022-yil 31-martdagi PQ-187-son «Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi, 2022-yil 8-fevraldagi PQ-121-son «Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2019-yil 28-martdagi PQ-4254-son «O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi va 2020-yil 29-yanvardagi PQ-4576-son «Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga doir boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlantirishning V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qo'ylar orasida senurozni tarqalishi, kasallikning kechishi, davolash va oldini olish borasida xorijlik olimlardan I.I.Magda, I.Shodmonov, V.I.Bondareva, T.I.Dikov, S.D.Ulyanov, A.V.Boydaliyev, R.S.Shuls, F.R.Skott, J.Stephen, E.Edward, C.Feldman, M.B.Miran, Ch.Georgios, M.Filiatra va boshqalar, Respublikamiz olimlaridan M.A.Aminjanov, N.M.Matchanov, Sh.M.Aminjonov, X.Arziyev, B.Hakimov, P.S.Haqberdiyevlar tomonidan ushbu patologiyaning epizootologiyasi, tarqalishi va klinik belgilarini o'rganish hamda oldini olish usullari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Biroq, Respublikamiz sharoitida xorijdan keltirilgan zotli qo'ylar orasida senurozning tarqalishi, kechish xususiyatlari, zamonaviy diagnostik usullar yordamida tashxis qo'yish va jarrohlik usulida davolash operatsiya texnikasini ilmiy asoslash hamda operatsiyadan keyingi davolashning samarali chora-tadbirlari ishlab chiqilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti hamda Jizzax viloyatining Dashtobod tumani «Jizzax organik» chorva klasteri bilan hamkorlikda «Jizzax organik MCHJ XK chorva klasteriga qarashli naslli qoramollar va qo'ylar salomatligini ta'minlash va mahsuldorligini oshirish» (21.06.2023-yil, №21-06-23), Samarqand viloyati Nurobod tumanidagi «Tim-Ag'ron chorvadorlari» MCHJ bilan hamkorlikda «Qo'ylarda senurozni xirurgik usulda davolash» (11.05.2022-yil, №2), hamda «Sana

³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son farmoni.

bobo qorako'l chorvasi» FX bilan «Qo'ylarda senurozni xirurgik usulda davolash» (13.05.2022-yil, №3) bo'yicha tuzilgan shartnomalar asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Respublikamizning Samarqand, Jizzax va Navoiy viloyatlaridagi qo'ychilik xo'jaliklari hamda aholiga qarashli qo'ylarda senurozning tarqalishi va klinik belgilarini o'rganish, kasallikni zamonaviy aniq tashxisi va davolashning jarrohlik usulini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Samarqand, Jizzax va Navoiy viloyatlari sharoitida qo'ylar orasida senurozning tarqalishini aniqlash;

zamonaviy tekshirish usullari va vositalari yordamida kasal qo'ylar bosh miyasidagi senur pufaklarining topografiyasi va strukturaviy xususiyatlarini aniqlash;

senurozni qo'ylarning klinik-gemotologik ko'rsatkichlari, ko'rish va harakat koordinatsiyasiga ta'sirini o'rganish;

qo'ylar bosh miyasidan senur pufagini jarrohlik yo'li bilan olib tashlash operatsiya texnikasini takomillashtirish;

qo'ylar senurozini operatsiyadan keyingi samarali davolash usullarini ishlab chiqish va amaliyotga keng joriy etish.

Tadqiqotning obyekti Respublikamizning Samarqand, Jizzax, Navoiy viloyatlari qo'ychilik fermer xo'jaliklari va klasterlari hamda aholiga qarashli senuroz bilan kasallangan qo'ylar, shuningdek, ulardan olingan qon namunalari, zamonaviy diagnostik usul va vositalarni qo'llash natijalari, jarrohlik usulida davolash uchun qo'llaniladigan jarrohlik asboblari, terapevtik hamda antiseptik preparatlar.

Tadqiqotning predmeti bo'lib senurozga chalingan qo'ylarni klinik, morfologik, gematologik ko'rsatkichlari, patologoanatomik o'zgarishlari, kasallikni diagnostikasi, davolashning jarrohlik usullari hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Mazkur dissertatsiya ishini bajarishda klinik, morfologik, biokimyoviy, patologoanatomik, rentgenologik, ultratovush tekshiruv, multisperalli kompyuter tomografiyasi, magnit-rezonans tomografiya, statistik va xirurgik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor qo'ylarda senurozga tashxis qo'yish, pufak joylashuvi va operatsiya uchun optimal maydonni aniqlashda UTT (ultratovushli tekshiruv) usulidan foydalanish samaradorligi yuqori bo'lishi ilmiy asoslangan;

senuroz bilan kasallangan qo'ylar bosh qismidagi tepa va ensa suyaklarning yupqalashishi, ko'rishning xiralashishi, ko'z nervining shishi kabi morfo-funksional o'zgarishlari ochib berilgan;

qo'ylar senurozi qondagi eritrotsitlar sonini $1,2 \pm 0,5$ mln/mkl (11,6%) va gemoglobin miqdorini $2,0 \pm 0,7$ g/l (2,2%) ga kamayishi, ECHT ning 3,1 mm/s ga tezlashishi bilan kechishi aniqlangan;

qo'ylarda senuroz kasalligini davolash usuli senur pufagini xirurgik usulda bosh miyadan olingach hosil bo'lgan bo'shliqni 2 foizli dekosan eritmasi bilan yuvish va uni 0,9 foizli natriy xlorid eritmasi bilan to'ldirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Samarqand, Jizzax va Navoiy viloyatlari chorvachilik klasterlari, fermer xo'jaliklar sharoitidagi qo'ylarda senurozning sabablari, yil mavsumlari kesimida tarqalishi aniqlangan;

qo'ylarda senurozga tashxis qo'yish, pufak joylashuvini va operatsiya uchun optimal maydonni topishda rentgen, UTT, MSKT va MRT tekshirish usullaridan foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan;

qo'ylarda senuroz kasalligini reabilitatsiya davrida 7 kun davomida vena qon tomiriga bir martadan 100 ml miqdorida 2 foizli siprofloksatsinni vena orqali yuborish va 2 kun davomida kuniga bir martadan 2 mg/ml miqdorida deksametazonni muskul orasiga yuborish asosida davolash usuli takomillashtirilgan va amaliyotga joriy etilgan;

qo'ylar senurozini davolash uchun trepan yordamida kraniotomiya o'tkazib senur pufagini bosh miyadan olib tashlash, hosil bo'lgan bo'shliqni 2%-li dekosan eritmasi bilan yuvish, ichki qon ketishini oldini olish va bosh miyadagi bosimni barqarorlashtirish uchun 0,9% li natriy xlorid eritmasini quyishga asoslangan jarrohlik davolash usuli amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi tadqiqotning zamonaviy uslub va vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, birlamchi ma'lumotlarga ishlov berish va amaliy tahlil qilish, olingan nazariy natijalarning tajriba ma'lumotlari bilan to'g'ri kelishi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar natijalari bilan chuqur ilmiy tahlil etilganligi, mutaxassislar tomonidan ilmiy tadqiqotlar va birlamchi materiallarga ijobiy baho berilganligi, ilmiy ish natijalarining ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qo'ylarda senurozning kelib chiqish sabablari, rivojlanishi va kechish xususiyatlari, kasallik paytida yuzaga keladigan klinik, patologoanatomik, morfo-funksional hamda gematologik o'zgarishlar tahlil qilinganligi, zamonaviy diagnostik usullar sinovdan o'tkazilganligi va olingan natijalar ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qo'ylarda senurozning dastlabki bosqichlarida zamonaviy UTT, MSKT, MRT va rentgenologik usullardan foydalanib tashxis qo'yish va takomillashtirilgan xirurgik usul yordamida davolash samaradorligi 81%ga yetishi, bu orqali qo'ychilik xo'jaliklariga yetkaziladigan katta iqtisodiy zararining oldi olinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qo'ylarda senurozning zamonaviy diagnostikasi va xirurgik usulda davolash bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

«Qo'ylarda senurozni zamonaviy diagnostikasi va xirurgik usulda davolash bo'yicha tavsiyalar» ishlab chiqilgan va Samarqand, Jizzax viloyatlaridagi ayrim qo'ychilik xo'jaliklariga joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi 2024-yil 18-martdagi 02/23-179-son ma'lumotnomasi). Bu tavsiyalarni qo'llash hisobiga qo'ylarda senurozni diagnostika qilish va jarrohlik yo'li bilan davolashda yuqori samaradorlikka erishilgan;

qo'ylarning senurozida pufakning bosh miyada joylashuvini UT PT50A VET ultratovush apparati yordamida aniqlash uchun 3-5 MHz transduser (Sensor)da tasvirga olishga asoslangan diagnostika usuli ishlab chiqilgan va qo'ychilik xo'jaliklariga joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi 2024-yil 18-martdagi 02/23-179-son ma'lumotnomasi). Ushbu diagnostika usulining joriy qilinishi natijasida senur pufagi bosh miyaning qaysi qismida, qancha chuqurlikda va uning hajmini 80% aniqlikda tashxislashga erishilgan;

qo'ylar senurozini davolash uchun trepan yordamida kraniotomiya o'tkazib senur pufagini bosh miyadan olib tashlash, hosil bo'lgan bo'shliqni 2%-li dekosan eritmasi bilan yuvish, ichki qon ketishini oldini olish va bosh miyadagi bosimni barqarorlashtirish uchun 0,9% li natriy xlorid eritmasini quyishga asoslangan jarrohlik davolash usuli takomillashtirilgan va amaliyotga joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi 2024-yil 18-martdagi 02/23-179-son ma'lumotnomasi). Qo'ylar senurozini takomillashgan xirurgik usulda davolashning iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lib sarflangan 1 so'm xarajatlar qoplami o'rtacha 5,2 so'mni tashkil etadi.

Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 7 ta, jumladan 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda, 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlar to'plamlarida nashr etilgan. Olingan natijalar asosida 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida tadqiqotlar mavzusining dolzarbligi va zarurati, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning ob'ekti va predmetlari, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchligi, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi va aprobsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Adabiyot ma'lumotlarining tahlili**» deb nomlangan I bobi to'rt qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi «Qo'ylar bosh miyasining anatomo-topografik tuzilishi va senurozni keltirib chiqaruvchi sabablari» deb nomlanib, bunda qo'ylar bosh miyasining anatomo-topografik tuzilishi, og'irligi, tepa va ensa suyaklarining qalinligi hamda kasallik davrida suyaklarda bo'ladigan

o'zgarishlar, senurozni keltirib chiqaruvchi sabablar, qo'zg'atuvchisi, yuqish yo'llari, kasallikning rivojlanishi, turlari haqida xorijiy va respublikamiz ilmiy-tadqiqotchilarining adabiyot manbalari tahlil qilingan.

Ikkinchi qism «Qo'y va boshqa turdagi hayvonlar orasida senurozning tarqalishi» deb nomlanib, unda senurozni qo'ylar va boshqa turdagi hayvonlar orasida tarqalish darajasi, kasallikning fasllar kesimida va yoshga bog'liq holatda uchrashi, bosh miyada pufak joylashishi (kvadratlar kesimida), o'lim darajasi to'g'risidagi xorijiy va respublikamiz olimlarining ilmiy tadqiqot ishlari atroflicha tahlil qilingan.

Uchinchi qism «Qo'ylarda senurozni patogenezi, klinik belgilari va zamonaviy diagnostika usullari» deb nomlanib, unda senurozni patogenezi, kasallikka xos klinik belgilar, bosh miyadan topilgan pufaklar soni, o'lchamlari, patologoanatomik o'zgarishlar to'g'risida va senurozga zamonaviy diagnoz qo'yish usullari bo'yicha xorijiy va respublikamiz olimlarining ilmiy tadqiqot ishlari atroflicha tahlil qilingan.

To'rtinchi qism «Hayvonlarda senurozni davolash usullari» deb nomlanib, unda senurozni jarrohlik yo'li bilan davolash, operatsiya texnikasi, kraniotomiya joylari, operatsiyadan keyingi davolash muolajalari, jarohatga ishlov berish, operatsiya qilingan qo'ylarni saqlash sharoitlari to'g'risida adabiyot ma'lumotlari bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot o'tkazilgan joy, predmeti va usublari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlar joyi, obekti va usublari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot obyekti sifatida Samarqand, Jizzax, Navoiy viloyatlari chorvachilik fermer xo'jaliklari va aholiga qarashli senuroz bilan kasallangan qo'ylar, shuningdek, ulardan olingan qon namunalari, zamonaviy diagnostik usullar, davolash uchun qo'llaniladigan xirurgik asboblari, terapevtik hamda antiseptik preparatlar bo'lib hisoblanadi.

Asosiy ilmiy tadqiqotlar Samarqand davlat vererinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti «Veterinariya jarrohligi va akusherlik» kafedrasida olib borildi.

Laboratoriya tahlillari «Samarqand diagnostik markazi» klinik laboratoriyasida o'tkazildi. Tajribadagi qo'ylar bosh miyasida senur pufagi joylashishini aniqlash uchun Respublika ixtisoslashgan travmatologiya ortopediya ilmiy amaliy markazi Samarqand filialida rentgen (Konrad Rentgen 1845) apparatida tasvirga olindi, MRT (Raymond Damadyan 1971) va MSKT tasvirlari Kattaqo'rg'on shahar «Ergash ota» xususiy tibbiy markazida, UTT (D.Xauri 1949) tekshiruvlari va senurozga chalingan qo'ylar bosh suyagining morfometrik ko'rsatkichlarini (shtangensirkul) aniqlash Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti «Veterinariya jarrohligi va akusherlik» kafedrasida qoshidagi jarrohlik klinikasida olib borildi. Barcha bosqichdagi tajribalarda qondagi eritrotsitlar va leykotsitlar soni (Goryayev usuli), leykogamma (leykotsitar formula), gemoglobin (Gemoglobinsianid usuli), qon zardobidagi ALT va AST fermentlarining faolligi, Umumiy bilirubin, Xolesterin miqdori (kinetik usul) aniqlandi.

Senurozga chalingan qo'ylarning bosh miyasidan pufakni olib tashlash uchun (Komnenou 2000) operatsiya o'tkazildi, miya bo'limiga yo'l ochishda trepanatsiya usulidan foydalanildi.

Senuroz pufagini olib tashlash uchun kraniotomiya bajarishda umumiy va mahalliy o'g'riqsizlantirish o'tkazildi. Umumiy o'g'riqsizlantirish uchun buyunturuq vena qon tomiriga 2% ksilanit eritmasi 0,15 mg/10 kg miqdorida yuborildi. Kesim chizig'i bo'ylab 0,5% novokain eritmasi 5-10 ml miqdorda to'yintirish (infiltratsiya) usuli bilan har bir qatlamga alohida-alohida yuborildi.

Operatsiya maydonchasiga Grossix usuli bo'yicha 5% yod eritmasi bilan ikki marta ya'ni, o'g'riqsizlantirishdan avval va keyin ishlov berildi.

Teriga quroqsimon shaklda kesim o'tkazildi, kesim trepanatsiya qilish, bemalol ishlash uchun qulay va keng bo'lishi, tezroq bitishi va organizmga tushishi mumkin bo'lgan infeksiya darvozasini imkon qadar kichikroq qilish maqsadga muvofiq. Teri va muskul qavatlar suyak usti pardasidan ajratiladi va suyak usti pardasiga ham xuddi shu shaklda kesim o'tkazildi.


Suyak usti pardasi raspator yordamida ehtiyotkorlik bilan suyakdan ajratildi.

Diametri 1 smli trepan yordamida suyak parmalanib miya bo'shlig'iga kirib borildi (1-rasm).



1-rasm. Trepanatsiya jarayoni

Parmalangan suyak bo'lakchasi olib tashlandi, miyaning qattiq pardasi in'eksion igna yordamida X shaklida kesildi. Pufak miya yarim sharlarida yuzaroqda joylashgan paytida pufakning o'zi yuqori bosim sababli tashqariga bo'rtib chiqadi, chuqurroq joylashganda esa rezina kateterli shprisdan foydalanildi. Pufak bir uchi pintset bilan ushlangach pufak ichidagi suyuqlik shpris yordamida olib tashlandi, so'ng pufak buralib miyaga zarar yetkazmaslik uchun sekinlik bilan miyadan chiqarib olindi (2-rasm).



2-rasm. Senur pufagini bosh miyadan olib tashlash.

Hosil bo'lgan bo'shliq dekosan 2% eritmasi bilan yuvildi, ichki qon ketishini oldini olish va bosimni ko'tarish maqsadida bo'shliqqa 0,9% natriy xlorid eritmasi quyildi. Dastlab suyak usti pardasi va so'ngra teriga so'rilmaydigan ipak /0 iplar bilan uzlukli chok qo'yildi (3-rasm).



3-rasm. Teriga uzlukli chok qo'yish.


Choklashda nafaqat ipak iplar balki kapron, neylon va ketgut choklash materilalaridan ham foydalanish mumkin. Choklar operatsiyadan keyin 10-kunida olib tashlandi.

Dissertatsiyaning «Qo'ylarda senurozga tashxis qo'yish usullarini takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari» deb nomlangan

uchinchi bob, yettita qismdan iborat bo'lib «O'zbekistonning ayrim xududlarida qo'ylar orasida senurozning tarqalishi va keltirib chiqaruvchi sabablar» deb nomlangan birinchi qismida ayrim hududlarda senurozni sabablari, tarqalishi, kasallikning fasllar va yosh bo'yicha uchrash darajasi, kasallangan qo'ylarda kuzatilgan klinik belgilar, davolash davrida kechadigan jarayonlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kasallik qo'ylarda itlar va yovvoyi hayvonlar najasi bilan ifloslangan ozuqalarni istemol qilishi oqibatida kelib chiqqan, bundan tashqari yaylovda qo'ylarning bosh qismi utilizatsiya qilinmasdan itlarga berilganligi kuzatildi.

Ayrim xo'jaliklarda qo'ylar yopiq joyda boqiladi ya'ni yaylovga olib chiqilmaydi, ularda kasallikning kelib chiqishida parazit tuxumlari bilan ifloslangan pichanlarni iste'mol qilganligi sabab bo'ladi, chunki xo'jalikda itlar saqlanmaydi, yaylovda esa aholiga tegishli daydi itlar va yovvoyi go'shtxo'r yirtqichlar kezib yurishi aniqlandi.



4-rasm. Senurozning uchrash darajasi oylar kesimida

Samarqand, Jizzax va Navoiy viloyatlarining qo'ychilik xo'jaliklaridagi qo'ylar orasida senuroz kasalligi jami tekshirilgan 6750 boshidan 156 boshda (2,3%) va aholi qaramog'idagi qo'ylar orasida 1455 boshdan 71 boshida (4,9%) aniqlanib, yoshi asosan 11-13 oylikga, eng ko'p uchrash darajasi avgust oyiga to'g'ri keladi.

Operatsiyadan avval senurozga chalingan qo'ylar klinik tekshirilganda, asosan ishtahaning pasayishi, harakat koordinatsiyasining buzilishi, suyaklarning yumshashi, perkutsiyada bo'g'iq tovushning eshutilishi kabi umumiy belgilar kuzatilgan bo'lib jumladan, kasallik aniqlangan qo'ylarning 71,4% bir tomonlama ko'rishning xiralashishi, qorachiqning kengayishi, chap yoki o'ng tarafga aylanish belgilari, 23,8% qo'ylarda boshni orqaga tashlash, yon tarafga yiqilish, orqaga yurish, tinch turgan holatda ham orqa oyoqlarini harakatlantirib ko'tarib tushurish,

4,8% qo'ylarda ishtahaning butkul yo'qolishi o'rindan turolmaslik, yon tomonga yotgan holda yugurayotgandek harakat belgilar kuzatildi.

Operatsiyadan keyingi 5-kunida ishtahaning, ko'rishning va harakat koordinatsiyasining tiklanganligi, chap yoki o'ng tarafga aylanishning yo'qolganligi, jarohat joyida mahalliy haroratning qisman oshishi, shish, palpatsiyada og'riq va bir oz gemorragik eksudatning chiqishi kuzatildi.

Operatsiyadan keyingi 10-kuniga kelib jarohat birlamchi tortilish bilan bitganligi, shishlarning ancha qaytganligi kuzatilgan. Trepanatsiya teshigi ustida briktiruvchi to'qima qoplay boshlagan.

O'ninchi kunga kelib jarohat joyidagi terining bitganligi aniqlandi va jarohatga qo'yilgan choklar pentsit va maxsus chok olishda ishlatiladigan qaychi yordamida olib tashlandi. Chok o'rni yodning 5% eritmasi bilan ishlov berildi.

Operatsiyadan keyingi 15-kunida ishtaha to'liq tiklangan, shishlar qaytgan, og'riq yo'q, jarohat biriktiruvchi to'qima bilan to'liq qoplangan.

Uchinchi bobning «Qo'ylar miyasining anatomo-topografik tuzulishi va senuroz kasalligida miyyadagi patomorfologik o'zgarishlar» deb nomlangan ikkinchi qismida qo'ylar bosh miyasining anatomotopografik tuzulishi, miya va bosh suyaklaridagi patologik o'zgarishlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Unga ko'ra senurozga chalingan qo'ylarda kasallik yaqqol belgilari nomoyon bo'lganidan keyin suyaklarning ham patologik o'zgarishlarga uchraganligi aniqlandi.

Sog'lom qo'ylarda zotiga qarab (Gersen bo'yicha) oldingi kvadratlar tepa suyagining qalinligi 5-7 mm, orqa kvadratlar tepa suyagining qalinligi esa 6-8 mmni, ensa suyagining qalinligi 10-12 mmni tashkil qildi. Senur pufak oldingi kvadratlarida joylashgan bo'lsa suyaklar qalinligi 1-3 mm gacha, pufak orqa kvadratlarida joylashsa uning qalinligi 3-5 mm gacha yupqalashganligi ma'lum bo'ldi. Ensa suyaklari qalin bo'lganligi uchun ularda 3 mm yupqalashganligi aniqlandi.

Uchinchi bobning «Senurozda Ultratovush diagnostikasi» deb nomlangan uchinchi qismida, ultratovush tekshirishlar natijalari bayon etilgan.

Xususan, senurozga chalingan qo'ylarda tekshirishlar o'tkazilib, ularning bosh miyasida joylashgan pufaklarning o'lchamlari, tepa suyagining tashqi yuzasidan qancha chuqurlikda joylashganligi (kraniotomiya uchun optimal maydon) aniqlandi.

Pufakning o'lchamlari o'rta 25,5x29,5 mm, tepa suyagidan chuqurligi esa 12 mm ekanligi aniqlandi. Bu usul yordamida bosh miyyadagi patologik jarayonlarni baholash, kasallikka aniq tashxis qo'yish, pufakning joylashuvini aniqlash va muvaffaqiyatli olib tashlash imkonini beradi.

Uchinchi bobning «Senurozda rentgenologik tekshirish» deb nomlangan to'rtinchi qismida, rentgenologik tekshirish natijalari keltirilgan bo'lib, tadqiqotlar o'tkazilgan 5 bosh qo'ylardan faqat bir boshida miyaning oldingi o'ng kvadratida 30x17 mm o'lchamdagi, hajmi 17-19 sm³ bo'lgan miyaga parallel joylashgan qora aylana halqa shaklidagi elleptik soya shaklida pufak aniqlandi.

Qolgan to'rt boshida pufak aniqlay olmadi.

Bunga pufakning suyuqlik bilan to'lganligi, pufakning rentgent nurlarini o'tkazuvchanligi yuqoriligi, zich miya qopqog'i bilan o'ralganligi va pufakning qon tomirlar bilan taminlanmaganligi sabab bo'lishi mumkin.

Ushbu bobning «Senurozda MRT va MSKT tekshirish» deb nomlangan beshinchi qismida, kasallangan qo'ylarning bosh sohasini MRT va MSKT usullarini qo'llash orqali olingan natijalar bayon etilgan.


Unga ko'ra pufaklarning hajmi o'rtacha $25 \times 27 \times 16$ mmni, pufak suyuqligining zichligi $+5$ HU ekanligi aniqlandi. Bosh miyaning pufak joylashgan qismida kulrang moddaning zichligi o'rtacha $+35+39$ HU, oq moddaning zichligi $+23+25$ HU ni tashkil etdi.

Tekshirishlar natijasida ensefalopatiya, kompyuter tomografiyasida o'ng yoki chap miya yarim sharlarida bo'shliqni egallagan suyuqlik belgilari, o'ng yoki chap ko'rish nervi shishi, oq va kulrang moddalar atrofiyasi belgilari aniqlangan.

Ushbu bobning «Senuroz bilan kasallangan qo'ylar qonining morfologik tekshirishlari» deb nomlangan oltinchi qismida, qonning morfologik tekshirish natijalari bayon etilgan.

Unga ko'ra tajribadagi senurozga chalingan qo'ylar qonining operatsiyadan avvalgi umumiy qon ko'rsatkichlari quyidagicha:


Nazorat guruhidagi qo'ylarda gemoglobin miqdori o'rtacha $91,2 \pm 2,6$ g/l ni tashkil qilgan bo'lib, senuroz bilan kasallangan qo'ylar qonida gemoglobin sezilarli darajada o'zgarishi kuzatilmadi va quyidagi natijalar aniqlandi, operatsiyadan avval $89,2 \pm 0,9$ g/l ni, operatsiyadan keyin 5-kuni $89,8 \pm 0,8$ g/l ni, 10-kuni $90,4 \pm 0,4$ g/l ni, 15-kunida $91,6 \pm 0,6$ g/l ni tashkil qildi ($p < 0,05$) (5-rasm).



5-rasm. Qondagi gemoglobin miqdorining o'zgarish dinamikasi (g/l).


Eritrotsitlar soni nazorat guruhida $10,3 \pm 0,4$ mln/mkl bo'lib, tajriba guruhida operatsiyadan avval o'rtacha $9,06 \pm 0,88$ mln/mkl, me'yoriga nisbatan ($1,03 \pm 0,3$)

11,4% ga kamayganligi, operatsiyadan keyin tajribaning 5-kunida $9,0 \pm 0,1$ mln/mkl ni, tajribaning 10-kunidan boshlab qisman eritrotsit soni ko'payganligi kuzatilib $9,3 \pm 0,3$ mln/mkl ni tashkil etdi (6-rasm).



6-rasm. Qondagi eritrotsitlar sonining o'zgarish dinamikasi.


Leykotsitlar soni nazorat guruhida $9,7 \pm 0,5$ ming/mkl ni tashkil etib, tajriba guruhida operatsiyadan avval uning miqdori $9,4 \pm 0,6$ ming/mkl, operatsiyadan keyin 5-kunida $8,8 \pm 0,1$ ming/mkl ni, 10 kunida $7,8 \pm 0,3$ ming/mkl va 15-kunida $8,0 \pm 0,3$ ming/mkl ekanligi aniqlandi (7-rasm).



7-rasm. Qondagi leykotsitlar miqdorining o'zgarish dinamikasi.

Bundan ko'rinib turibdiki operatsiyadan avval leykotsitlar soni nazorat guruhi bilan bir xil bo'lgan tajriba davrida qisman kamaygan ($p < 0,05$).

Tajribadagi barcha qo‘ylar qon tahlilidagi eritrotsitlar cho‘kish tezligi (ECHT) vaqti ham tajribalar davomida tekshirilib borildi va quyidagilar aniqlandi. Nazorat guruhidagi qo‘ylarda ECHT vaqti $0,6 \pm 0,1$ mm/s ekanligi qayd etildi (8-rasm).



8-rasm. Eritrotsitlar cho‘kish tezligining o‘zgarish dinamikasi (mm/s).

Tajribadagi qo‘ylarda ECHT vaqti $3,7 \pm 1,0$, mm/s nazorat guruhiga nisbatan $3,1 \pm 1,0$, mm/s ga tezlashganligi aniqlanib, bu vaqt tajriba oxirigacha qisqarib bordi. Tajriba so‘ngida ECHT vaqti me‘yoriga qaytganligi aniqlandi. Bu esa kasallik davrida organizmda yallig‘lanish jarayonlari kechayotganligidan dalolat beradi.

Uchinchi bobning «Senuroz bilan kasallangan qo‘ylar qonining biokimyoviy ko‘rsatkichlari» deb nomlangan yettinchi qismida tajribadagi senurozga chalingan qo‘ylar qon zardobidagi ALT va AST fermentlarining faolligi, umumiy bilirubin hamda xolesterin miqdori tekshirib borildi. Shunga ko‘ra nazorat guruhi qo‘ylarning qonidagi ALT fermentining faolligi $39,3 \pm 0,5$ B/l ni tashkil etdi.

Tajribadagi qo‘ylar qonidagi ALT fermentining faolligi biroz kamayganligi kuzatilib, eng past ko‘rsatkich operatsiyadan keyin 5-kunida $29,6 \pm 1,6$ B/l ni tashkil qildi, tajriba so‘ngida $32,9 \pm 1,5$ B/l ekanligi aniqlandi.

Nazorat guruhi qo‘ylar qonidagi AST fermentining faolligi $55,6 \pm 0,6$ B/l ni, tajribadagi qo‘ylarda bu ko‘rsatkich operatsiyadan avval pasaygani ($17,6 \pm 1,9$ B/l) va tajriba so‘ngida $55,0 \pm 0,9$ B/l gacha ko‘tarilib borganligi aniqlandi. ALT va AST fermentlarining faolligi fiziologik chegarada bo‘lib organizmda jigar va yurakda hech qanday patologik jarayonlar yo‘qligidan dalolat beradi.

Umumiy xolesterin miqdori nazorat guruhida $1,9 \pm 0,1$ mmol/l ni tashkil qilgan bo‘lsa tajriba guruhida bu ko‘rsatkich operatsiyadan avval $2,37 \pm 0,14$ mmol/l bo‘lib, tajriba so‘ngiga qadar kamayib bordi va $1,6 \pm 0,1$ mmol/l ekanligi aniqlandi.

resurs markazi
Inv № 9-14321

Dissertatsiyaning «Qo'ylarda senurozni davolash tajribalarning natijalari» deb nomlangan to'rtinchi bobi, ikkita qismdan iborat bo'lib, «Qo'ylarda senurozni operatsiya usuli bilan davolash natijalari» deb nomlangan birinchi qismida operatsiya texnikasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Senurozga gumon qilangan qo'ylar dastlab klinik tekshiruvlardan o'tkazilib, fiziologik ko'rsatkichlar aniqlandi. Bir daqiqadagi yurak urishi 85-95 marta, nafas soni 16-30 martani, tana harorati 38,5-39,5 C° ni tashkil qilganligi kuzatildi.

Kasallangan hayvonlarda o'ng yoki chap tarafga aylanish, ishtaha pasayishi, koordinatsiyaning yo'qolishi, ko'rishni bir va ikki tomonlama xiralashishi, boshini devorga taqab turish, pufak joylashgan qismida suyaklarning yumshashi, perkussiyada o'tmas tovushning eshinishi, kam uchraydigan belgilardan orqa oyoqlarni tinimsiz joyida harakatlantirish, 1 bosh qo'yda yotgan holatda yugurayotgan holatni takrorlash kabi belgilar kuzatildi (senur pufagi miyachadan topilgan). Pufak joyini aniqlash va senurozga tashxis qo'yish uchun umumiy tekshirish usullaridan tashqari maxsus zamonaviy diagnostik usullardan ultratovush, rentgenologik va MRT tekshirish usullaridan foydalanildi.

Operatsiyaga tayyorlashda qo'ylar qayt qilishi, qorinda gazlar to'planib qolishini oldini olish va narkozning tasiri yaxshi bo'lishi uchun operatsiya qilishdan 12 soat oldin ozuqa berish to'xtatildi.

Qo'yning bosh miyasidan senur pufagini olib tashlash:

Hayvonlarda qorin sohasida gaz to'planmasligi va operatsiya o'tkazish qulay bo'lishi uchun qorin sohasiga yotqizilgan holatda fiksatsiya qilindi. Umumiy o'g'riqsizlantirish (Komnenou 2000) uchun sedativ modda sifatida Xyla 2% (Interchemie, ksilazin 20 mg) buyunturuq venasi ichiga 0.15 ml/10 kg miqdorida yuborildi. Mahalliy og'riqsizlantirish uchun 0,5% novokain eritmasidan foydalanilib, infiltratsion usulda og'riqsizlantirildi.

Dastlab senuroz bo'lgan qo'yning bosh qismida kraniotomiya o'tkaziladigan joy ya'ni operatsiya maydonchasi junlardan tozalanib, teriga 5% yod etitmasi bilan ikki marta, mahalliy og'riqsizlantitishdan oldin va teriga kesim o'tkazishdan oldin ishlov berildi.

Teriga yarim oy shaklida kesim o'tkazilib to'qimalar xirurgik qaychi yordamida suyak usti pardasidan ajratildi, keyin suyak usti pardasiga ham xuddi shu shaklda kesim o'tkazildi va raspator yordamida suyakdan ajratildi. Diametri 1 sm li trepan yordamida suyak parmalanib miya bo'shlig'iga yo'l ochildi, trepanatsiya ehtiyotkorlik bilan kuchli bosim bermasdan amalga oshirish lozim, agar suyaklar yupqalashgan bo'lsa trepan miyaga botib kirib zarar yetkazishi mumkin.

Suyak bo'lakchasi olib tashlangach uni joyiga qaytarib qo'yilmaydi, agarda suyak bo'lakchasi trepanatsiya o'rniga qayta qo'yilsa boshqa suyaklar bilan zich birikmasligi sababli chirishi va noxo'sh holatlarga olib kelishi mumkin.

Keyin miyaning qattiq pardasi in'eksion igna yordamida X-shaklida kesildi. Miyaning qattiq pardasini kesishda undagi qon tomirlarga etibor qaratish lozim, imkon qadar qon tomirlarga shikast yetkazmaslikka harakat qilish kerak, shunda qon ketishi oldi olinadi va pufakni olib tashlash osonlashadi.

Bosh miya yarim sharlarida pufak yuzaroqda joylashganda pufakning o'zi tashqariga bo'rtib chiqdi, chuqurroq joylashganda esa rezina kateterli shprints yordamida olib tashlandi. Pufakning bir uchi pintset bilan ushlangach pufak ichidagi suyuqlik shpris yordamida olib tashlandi, so'ng pufak buralib miyaga zarar yetkazmaslik uchun sekinlik bilan miyadan chiqarib olindi. Hosil bo'lgan bo'shliq dekosan 2% eritmasi bilan yuvilib, ichki qon ketishini oldini olish va bosimni ko'tarish maqsadida 0,9% natriy xlorid eritmasi bo'shliq hajmiga qadar quyildi. Dastlab suyak usti pardasiga so'ngra teriga so'rilmaydigan ipak /0 ip yordamida uzlukli chok qo'yildi.

Operatsiyadan keyin qo'ylar tinch, alohida xonaga qo'yilib narkozdan o'ziga kelgunicha nazorat qilib turildi. Jarohatga Oxy Sprey 200 vositasidan kuniga 2 marta ishlov berildi. Siprofloksatsin 2 mg/ml antibiotigidan 7 kun davomida kuniga 1 mahal 100 ml vena orqali yuborildi. Muskul orasiga 2 kun davomida 4% deksamitazon 2 ml yuborildi. Choklar operatsiyadan keyin 10-kunida olib tashlandi.

To'rtinchi bobning, «Ishning iqtisodiy samaradorligi» deb nomlangan ikkinchi qismida senurozga chalingan qo'ylarni davolash uchun sarflangan 1 so'm xarajatga erishilgan iqtisodiy samaradorlik 5,2 so'mni tashkil qildi.

XULOSALAR

1. Samarqand, Jizzax va Navoiy viloyatlari sharoitidagi qo'ylarda senurozning tarqalishi qo'ychilik xo'jaliklarda o'rtacha 2,3% ni, aholi qaramog'idagi qo'ylarda 4,9% ni tashkil etishi aniqlandi.

2. Senur pufaklarini miyada joylashuvini aniqlashda UTT, MRT, MSKT diagnostik usullardan foydalanish va trepan yordamida kraniotomiya o'tkazilib senur pufagini olib tashlashga asoslangan davolash usulining samaradorligi 81% ni tashkil etishi aniqlandi.

3. Qo'ylarda bosh sohasini patologoanatomik yorib ko'rish natijasida bosh miyada asosan bitta yirik yoki ikkita kichikroq tiniq suyuqlik bilan to'lgan pufaklar aniqlangan, pufaklar diametri 30-40 mm bo'lib, ichidan 18-58 ml gacha suyuqlik bo'lishi, frontal suyaklarning 4 mm gacha va parietal suyaklarning 3 mm gacha yuqqalashishi aniqlandi.

4. Ultratovush tekshirish yordamida senurozga tashxish qo'yish va pufak joylashuvini 80% holatlarda aniqlandi, bu usulning kamchiligi pufak miyada chuqur joylashganda yoki miyachada bo'lganda 20% hollarda aniqlashning imkoni pastligi isbotlandi.

5. Senur pufagining qon tomirlar bilan ta'minlanmaganligi, pufak devorining yuqqaligi, bosh suyagining ichida joylashganligi rentgen nurlarini o'zida tutib qolmasligi sababli kasallikka tashxis qo'yishda rentgenologik tekshirish usuli samarasiz ekanligi aniqlandi.

6. Senurozga chalingan qo'yning bosh miyasi MRT va MSKT tasvirlarida ensefalopatiya, miya yarim sharlarida qisman qon quyulish asoratlari va bo'shliqni egallagan pufak belgilari, ko'rish nervi shishi va oq-kulrang moddalar atrofiyasi belgilari, miyaning kulrang moddasi zichligi o'rtacha +35+39 HU, oq moddaning

zichligi +25+27 HU, pufak o'lchamlari 23,5x24,5x21,5 mm, pufak zichligi +5 HU ni tashkil etishi xarakterli belgilar bo'lishi aniqlandi.

7. Senur pufaklari bosh miyadagi joylashuviga ko'ra 95,2% holatlarda miya yarim sharlarida 4,8% hollarda miyachada joylashishi, 90,5% holatda bitta pufak, 9,5% holatda ikkita pufak bo'lishi aniqlandi.

8. Senuroz bilan kasallangan qo'ylarning qonidagi eritrotsitlar soni 11,6% ga va gemoglobin miqdori 2,2% ga kamayishi aniqlandi, operatsiyadan keyin bu ko'rsatkichlarning nazorat guruhi ko'rsatkichlari bilan tenglashishi, ECHT ni tajribadagi qo'ylarda yuqori bo'lishi ularda yallig'lanish jarayoni mavjudligi aniqlandi.

9. Senurozga UTT, MRT, MSKT diagnoz qo'yish va jarrohlik yo'li bilan davolash natijasida sarflangan 1 so'm hisobiga iqtisodiy samaradorligi 5,2 so'mni tashkil etishi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.06/30.12.2019.V.12.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ВЕТЕРИНАРНОЙ
МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И БИОТЕХНОЛОГИЙ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И
БИОТЕХНОЛОГИЙ**

РАВШАНОВ МИРЖАЛОЛ АКМАЛ УГЛИ

**СОВРЕМЕННАЯ ДИАГНОСТИКА И ХИРУРГИЧЕСКОЕ
ЛЕЧЕНИЕ ЦЕНУРОЗА У ОВЕЦ**

16.00.01 – Диагностика, терапия и хирургия болезней животных

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ВЕТЕРИНАРНЫМ НАУКАМ**

Самарканд – 2024

Тема диссертации на степень доктора философии (PhD) по ветеринарным наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2023.2.PhD/V85.

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Самаркандском государственном университете ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий

Автореферат диссертации доктора философии (PhD) на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.ssuv.uz) и в информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Нарзиев Бахтиёр Далиевич
кандидат ветеринарных наук, доцент

Официальные оппоненты:

Бакиров Бахтияр
доктор ветеринарных наук, профессор

Гафаров Усман Бобоназарович
кандидат медицинских наук, доцент

Ведущая организация:

Комитет ветеринарии и развития животноводства

Защита состоится « 4 » 05 2024 г. в 11⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSс.06/30.12.2019.V.12.01 по присуждению ученых степеней при Самаркандский государственный университет ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий (Адрес: 140103, город Самарканд, ул. Мирзо Улугбека, 77, Тел.: (99866) 234-76-86; e-mail: ssuv@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Самаркандский государственный университет ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий (зарегистрирована за № 14321) (Адрес: 140103, город Самарканд, ул. Мирзо Улугбека, 77., Тел./ факс: (99866) 234-76-86, e-mail: ssuv@edu.uz).

Автореферат разослан « 19 » 04 2024 г.
(протокол рассылки № 7 от « 19 » 04 2024 г.)



Х.Б.Юнусов

Председатель научного совета по
присуждению учёной степени,
д.биол.н., профессор

С.Б.Эшбуриев

Учёный секретарь научного совета
по присуждению учёной степени, д.вет.н.,
доцент

К.Н.Норбоев

Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
учёной степени, д.вет.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора (PhD) философии)

Актуальность и востребованность темы диссертации. Сегодня особое внимание уделяется развитию овцеводства, которое является одной из важных отраслей животноводства в обеспечении населения мира качественной мясной, молочной и шерстной продукцией. «В мировом масштабе, общее поголовье овец составляет 1 млрд 363 млн 396 тысяч»¹, «16,36 млн (4,6%) тонн из 354,8 млн тонн мяса, потребляемого человеком ежегодно, приходится на баранину»². Ряд инфекционных, неинфекционных и инвазионных заболеваний, в том числе ценуроз овец, является серьезным препятствием для интенсивного развития овцеводства. Широкое распространение ценуроза среди овец наносит большой экономический ущерб из-за резкого снижения их продуктивности или падежа. Поэтому разработка эффективных методов ранней диагностики, лечения и профилактики ценуроза овец считается одной из актуальных задач, стоящих перед ветеринарными специалистами.

В связи с тем, что в ряде стран мира ценуроз широко распространен среди овец, существуют благоприятные условия для развития возбудителя, трудность постановки точного диагноза заболевания, а также то, что не разработаны эффективные методы лечения, является важным проведение научных исследований в этой области. Путём совершенствования научно обоснованных хирургических методов ранней и точной диагностики и лечения данной патологии, станет возможным развитие отрасли, снижение себестоимости продукции, обеспечение безопасности пищевых продуктов, удовлетворение потребности населения в качественных, экологически чистых мясных продуктах.

В результате проводимых в овцеводческих хозяйствах нашей республики глубоких реформ по интенсивному развитию отрасли, на основе адаптации новых продуктивных пород овец завезенных из-за границы, к климатическим условиям нашей страны и внедрения новых современных технологий, увеличивается количество поголовья породистых овец, повышаются качество и продуктивность получаемой от них продукции. Вместе с тем, в ветеринарной практике реализуется широкий спектр мероприятий по разработке методов ранней научно обоснованной диагностики паразитарных заболеваний овец, в частности цестодозов, совершенствованию эффективного лечения и профилактических мероприятий, основанных на разрыве биологической цепи. Среди местных и чистокровных овец, принадлежащих овцеводческим фермам и населению, ценуроз характеризуется острым и хроническим течением, вызывая значительный экономический ущерб из-за задержки роста и

¹ World population review. <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/sheep-population-by-country>

² Meat and dairy production. <https://ourworldindata.org/meat-production>

развития молодых ягнят или вынужденного забоя и увеличения затрат на лечение. Поэтому в ликвидации этой проблемы имеет важное теоретическое и практическое значение усовершенствование и широкое внедрение в практику хирургического метода лечения.

